



Rektor minbari

TA'LIM SIFATI – TARAQQIYOTNING BOSH OMILI



Ta'lim izchilligini ta'minlash va sohada keng islohotlarni olib borish mamlakat taraqqiyotining poydevorini ta'minlashga xizmat qiladi. O'tgan davrlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'lim sohasida qator islohotlar olib borilganini biz yaxshi bilamiz. Jumladan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, sohaga oid Prezident farmon va qarorlari, hukumat qarorlari hamda boshqa hujjatlarning qabul qilinishi milliy ta'lim tizimidagi tub sifat o'zgarishlarining huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.



Yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ta'lim tizimidagi islohotlarning tahliliga bag'ishlangan yig'ilishida bir qancha ustuvor vazifalar, jumladan, maktab ta'limini rivojlantirish va ta'lim sifatini yanada oshirish, maktab, o'quvchi o'rnini ko'paytirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va ularga munosib sharoit yaratish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Binobarin, ularni amalga oshirish mexanizmlari ham ko'rsatildi.

Darhaqiqat, uzluksiz ta'limning bir halqasi bo'lgan maktab ta'limi, ta'limning keyingi bosqichlari, ayniqsa, oliy ta'lim bilan chambarchas bog'liqdir. Keyingi yillarda maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga kirish ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, abituriyentlarning yarmidan ko'pi test sinovlaridagi minimal balni ham to'play olmayotgani tizimda o'z yechimini kutayotgan muammolar borligidan darak beradi. Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchining bilim va malakasi asosiy omil bo'layotgani tobora oydinlashib bormoqda, shu bois davlatimiz rahbari o'qituvchi mas'uliyatiga alohida urg'u bermoqda. Maktab o'qituvchilarini tanlov asosida ishga qabul qilish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish mazkur masalaning yechimi sifatida ko'rilmoqda. Agar maktab ta'limi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirilsa bunday amaliyot kelajakda o'z samarasini berishi shubhasizdir.

Yig'ilishda soha uchun kadrlar tayyorlash masalasiga alohida ahami-

yat berildi. Bundan buyon pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari alohida yondashuv asosida rivojlantiriladi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida pedagogik ta'lim bo'yicha alohida kengash faoliyat olib boradi. Pedagogika oliygohlaridagi kadrlar tayyorlash tizimiga ilg'or xorijiy tajribalar tatbiq etiladi hamda bu borada Nizomiy nomidagi Toshkent davlat va Chirchiq davlat pedagogika universitetlari tayanch OTM sifatida tanlandi. Joriy o'quv yilidan e'tiboran barcha universitetlardagi mavjud pedagogikaga sohasiga oid ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari va dasturlari ana shu tayanch oliygohlar tomonidan muvofiqlashtirib boriladi. Bu esa pedagogika ta'limi sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini maktab ta'limi bilan yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.



Qoraqalpoq davlat universitetida ham pedagogika ta'lim sohasiga oid 3 ta bakalavriat yo'nalishi mavjud bo'lib, joriy o'quv yilidan e'tiboran o'quv rejalari va dasturlar tayanch OTMlar tomonidan ishlab chiqilgan o'quvme'yoriy hujjatlarga muvofiqlashtirildi. Talabalar amaliyotlarini "4+2" shaklida umumta'lim maktablarida tashkil qilish uchun shartnomalar tuzildi. Bularning barchasi pedagogika sohasida yetuk kadrlar tayyorlash maqsadida qilinmoqda. Chunki kelajakda muayyan maktab o'qituvchisining natijasi shu kadrlar tayyorlagan oliygo'ra uchun muhim ko'rsatkich bo'lishi qayd etildi. Agar bitiruvchi pedagogik faoliyatida past natija ko'rsatsa, uning tahsil olgan oliy ta'lim muassasasiga ish beruvchi tomonidan reklamatsiya – e'tiroznoma yuborilishi, bu o'z navbatida OTM reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar bo'ldi.

Ezgu maqsadlar ko'zlangan bunday amaliy harakatlar milliy ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlarga zamin yaratadi. Shuningdek, maktablarda, yuqori sinflarda fanlarning qisqartirilishi, o'quvchilarning o'zlari maqsad



Maktab ta'limi tizimida kutilayotgan o'zgarishlardan yana biri bu – maktab boshqaruvidagi islohotlardir. Endilikda maktablarning har besh yilda sertifikatsiyadan o'tish amaliyoti joriy etiladi. Sertifikatsiyadan o'ta olmagan maktablarning direktorlari bilan mehnat shartnomalari to'xtatilishi, yaxshi natija ko'rsatgan maktablar rahbarlarini 50 foizgacha moddiy rag'batlantirish kabi usullarning tatbiq etilayotgani boshqaruv xodimlarida



qilgan yo'nalishlar bo'yicha chuqurroq bilim olishlariga imkoniyat beradi va natijada maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga yuqori bal bilan kirish ko'rsatkichlarini oshiradi.

mas'uliyatni, kerak bo'lsa javobgarlikni oshiradi.

Maktab ta'limidagi izchil islohotlar uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bosqichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini inobatga olsak, Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalarni birgalikda va bahamjihat ravishda amalga oshirish zarur. Zero, mamlakat taraqqiyoti sifatli ta'limga, malakali pedagog kadrlarga bog'liq ekan, oliy ta'lim tizimi oldida turgan kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar aniq namoyon bo'ladi. Ana shu ezgu maqsadlarga erishish uchun bor kuchg'ayratimizni va salohiyatimizni safarbar etamiz.

Ahmed REYMOV,
Qoraqalpoq davlat universiteti rektori,
texnika fanlari doktori,
professor